



Rasmlarga qarang. Ularga izoh bering.



Qishki ta'til

Qambar Ota

Keldi yangi yil boshida,
Laylak qori bor boshida.
Qorbobosi qorqiz bilan,
Yayrab kular sho'x biz bilan.
Qishki ta'til,
Qishki ta'til.
Muz ko'zgudek tiniq, qoyil,
Sirpanishga hamma moyil.

Tabiat der: Yayragin, kul,
Har kun bayram,
Har kun sayil.
Qishki ta'til,
Qishki ta'til.
Hamma bola bir til, bir dil,
O'yinimiz quvnoq, odil.

Ne qilsak ham og'rinmas dil,
Qishki ta'til,
Qishki ta'til.
Erta-yu kech chana uchib,
Umbaloqlab, qor, muz quchib.
Qish gashtini surmoq uchun,
Sog'inganmiz seni butun.

Qishki ta'til,
Qishki ta'til.
Qushday yengil har bir bola,
Kayfiyati bo'lib a'lo.
Senda topar ming bir ma'no,
Qishki ta'til,
Qishki ta'til.

Qaynar yurak, quvnar ko'ngil,
Toliqishni bilmas hech dil.
O'qishlar zo'r bo'lar bu yil,
Hammasiga o'zing kafil.
Qishki ta'til,
Qishki ta'til.





1. She'r kimning tilidan aytilgan?
2. She'rdagi qishki ta'til qanday tasvirlangan?
3. Qishda qanday o'yinlar o'ynaladi?
4. Qishki ta'til davomida qanday kitoblarni mutolaa qilishni rejalashtiryapsiz?
5. Sizga qishki ta'til yoqadimi?
6. Ta'til maroqli o'tishi uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?



1. Quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlang:

umbaloqlab

moyil

kafil

gasht

2. She'rdagi o'xshatishlarni aniqlang va ularga izoh bering.
3. She'r mazmuniga mos hikoya tuzing.
4. So'zning oxirgi bo'g'inidan yangi so'zlar zanjirini hosil qiling.

Ta'til-tilchi-...



**She'rni ifodali o'qing va yod oling.
Qishki ta'til rejangizni tuzing.**